

“O’QUVCHILARDA VIRTUAL DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI”

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy Universiteti 4-kurs talabalari*

Latipova Sh.

O‘roqova Sh.

Olimova R.

Qudratova S.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga, xususan, ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur kirib kelganligi, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy platformalar va sun’iy intellekt vositalari bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: virtual dunyoqarash, sun’iy intellekt, raqamli texnologiya

Аннотация: XXI век характеризуется формированием информационного общества, в условиях которого цифровые технологии глубоко проникли во все сферы жизни человека, в частности — в процесс образования и воспитания. Интернет-сети, мобильные устройства, социальные платформы и инструменты искусственного интеллекта оказывают непосредственное влияние на мировоззрение детей, их мышление, ценности и социальное поведение.

Ключевые слова: Виртуальное мировоззрение, искусственный интеллект, цифровая технология

Abstract: In the 21st century, under the conditions of an information society, digital technologies have deeply penetrated all spheres of human life, particularly the process of education and upbringing. Internet networks, mobile devices, social platforms, and artificial intelligence tools directly influence children’s worldview, thinking, values, and social behavior.

Key words: Virtualworldview, artificialintelligence, digital technology

Virtual dunyoqarash zamonaviy jamiyat rivojining muhim fenomenlaridan biri bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji natijasida shakllangan ijtimoiy ongning yangi ko‘rinishini ifodalaydi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar, ayniqsa bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalar ongida virtual makon orqali shakllanayotgan qarashlar ularning ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlar tizimi va fuqarolik pozitsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual dunyoqarash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni raqamli makonda shakllanuvchi ijtimoiy ong shakli sifatida izohlasa,

boshqalari uni axborot oqimlari ta'sirida vujudga keladigan subyektiv qarashlar majmui sifatida baholaydi. Har ikkala yondashuvda ham virtual dunyoqarashning jamiyat hayotidagi o'zni tobora kuchayib borayotgani e'tirof etiladi. Virtual dunyoqarashning shakllanishi avvalo internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur vositalar orqali tarqatilayotgan axborotlar shaxs ongiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning hayotiy pozitsiyasini belgilashda muhim omilga aylanadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan shaxslarda noto'g'ri yoki biryoqlama virtual dunyoqarash shakllanish xavfi ortadi.

Virtual dunyoqarashning ijobiy jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, u shaxsning axborotga tezkor kirish imkoniyatini kengaytiradi, bilim olish jarayonini soddalashtiradi va global madaniy almashinuvni jadallashtiradi. Shu bilan birga, virtual makon yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va o'zini o'zi namoyon etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Biroq virtual dunyoqarashning salbiy jihatlar ham mavjud. Jumladan, yolg'on axborotlar, manipulyativ kontent, ekstremistik g'oyalar va axloqiy me'yorlarga zid materiallar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shu boisdan ham virtual dunyoqarashni ilmiy asosda o'rganish, uning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish va ijtimoiy-pedagogik jihatdan to'g'ri yo'naltirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bakalavr ta'limi jarayonida talabalar ongida sog'lom virtual dunyoqarashni shakllantirish, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va axborot madaniyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Virtual dunyoqarash zamonaviy jamiyat rivojining muhim fenomenlaridan biri bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji natijasida shakllangan ijtimoiy ongning yangi ko'rinishini ifodalaydi. Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlar, ayniqsa bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalar ongida virtual makon orqali shakllanayotgan qarashlar ularning ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlar tizimi va fuqarolik pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Virtual dunyoqarash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni raqamli makonda shakllanuvchi ijtimoiy ong shakli sifatida izohlasa, boshqalari uni axborot oqimlari ta'sirida vujudga keladigan subyektiv qarashlar majmui sifatida baholaydi. Har ikkala yondashuvda ham virtual dunyoqarashning jamiyat hayotidagi o'zni tobora kuchayib borayotgani e'tirof etiladi. Virtual dunyoqarashning shakllanishi avvalo internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur vositalar orqali tarqatilayotgan axborotlar shaxs ongiga bevosita ta'sir

ko'rsatib, uning hayotiy pozitsiyasini belgilashda muhim omilga aylanadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan shaxslarda noto'g'ri yoki biryoqlama virtual dunyoqarash shakllanish xavfi ortadi. Virtual dunyoqarashning ijobiy jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, u shaxsning axborotga tezkor kirish imkoniyatini kengaytiradi, bilim olish jarayonini soddalashtiradi va global madaniy almashinuvni jadallashtiradi. Shu bilan birga, virtual makon yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va o'zini o'zi namoyon etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida o'quvchilarda virtual dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish muhim pedagogik hamda ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va sun'iy intellekt vositalari yoshlarning fikrlashi, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli o'quvchilarning virtual makonda faoliyat yuritishi ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida yo'naltirilishi zarur.

Virtual dunyoqarashni rivojlantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, madaniy meros hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar internet va raqamli muhitdan foydalanishda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, yolg'on va zararli kontentni ajrata olish, shuningdek, axborot madaniyatiga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu esa ularning nafaqat bilim saviyasini, balki ma'naviy barkamolligini ham ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchilarda sog'lom virtual dunyoqarashni shakllantirishda ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Pedagoglar o'quvchilarga raqamli muhitda to'g'ri yo'l tutish, axborot xavfsizligi, internet etikasi va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini singdirish orqali ularning ma'naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlashlari zarur.

Umuman olganda, o'quvchilarda virtual dunyoqarashni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari yosh avlodni zamonaviy axborot muhitida ongli, mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon esa jamiyatning barqaror rivoji hamda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. Turayev B.O., Xalilov Sh. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2018.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.